



Mavzu:“Navoiy” romani O‘qituvchi:Abdukadirova M.M.



“NAVOIY”

romani




O`zbek xalqi tarixida XIV-XV asrlar alohida o`rinni egallaydi. Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi bilan yangi va qudratli o`zbek davlatchiligiga asos solindi. Sharqning hozirga qadar iftixori bo`lib kelayotgan mahobatli inshootlar – me`moriy obidalar bino etildi. Adabiyot, san`at va fan keng taraqqiy etdi. Ana shu taraqqiyotning timsoli va natijasi sifatida Alisher Navoiyning buyuk asarlari yaratildi. Navoiy faqat buyuk shoir bo`libgina qolmay, XV asrning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma`rifiy hayotiga ham katta ta`sir o`tkazdi.

Ayrim tarixchilarda: agar Husayn Boyqaro bo`limganida Navoiy shoir sifatida bunday yuksaklikka erishmagan bo`lardi, degan fikr bor. Ehtimol, bu fikrda haqiqat urug`lari yo`q emasdir. Ammo eng muhimi shundaki, agar Navoiy bo`limganida, Husayn Boyqaro ham davlatni va avom (xalq)ni idora etishda bu darajada muvaffaqiyat qozonmagan, Husayn Boyqaroning o`zi ham, xalq ham, davlat ham allaqachonlar ichki nizolar va urushlarning qurboni bo`lgan bo`lardi.

Shu so`zlarning o`zidanoq roman markazida Navoiy va Husayn Boyqaro obrazlari turishi zarurligi yaqqol ko`rinib turibdi.



Shubhasiz, Oybekning asosiy maqsadi Navoiyning ulug` inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratishdir. Oybekning talqinicha, Navoiy siyimosining ana shu uchala qirrasini o`zaro birlashtirib turadigan “magnit maydoni” uning insonparvarligidir. Oybek Navoiyning insonparvar shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratish uchun asarga tarixiy shaxslar obrazi bilan birga, badiiy to`qima mahsuli bo`lgan bir qator obrazlarni ham kiritgan. Bular, birinchi navbatda, Navoiyning shogirdi Sultonmurod, uning do`sti Arslonqul va uning sevgilisi Dildordir. Bular – roman voqealarida oddiy xalq vakillari sifatida ishtirok etib, Navoiyning ulug` inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini ochishga ko`maklashadi. Husayn Boyqaro, Jomiy, Behzod, Nizomulmulk, Majididdin singari o`nlab tarix sahifalaridan kirib kelgan. Oybek bu qahramonlar obrazini yaratishda tarix haqiqatiga suyangan.



Navoiy – davlat arbobi



TIIAME

Navoiy asar boshlarida do`sti Xo`ja Afzal bilan suhbatlashar ekan, unga bunday deydi:

“Xurosonda bir davr yaratmoq lozimki, - dedi Navoiy shavqlanib, — o’zga xalqlar ibrat ola bilsinlar... Tokaygacha insonlar vahshat sahrosida qolurlar! Inson barcha maxluqotning tojidir. U sharafli, sof, go’zal yashamog’i kerak. Davlat arboblari aql va adolatni shior qilsalar, xalqni parvarish etsalar, hayotning zangini oltinga aylantirmoq mumkin”.

“Inson barcha maxluqotning tojidir. U sharafli, sof, go’zal yashamog’i kerak” – Navoiyning shoir va davlat arbobi sifatidagi butun faoliyati shu narsani amalga oshirishga qaratilgan.



Husayn Boyqaro



TIIAME



Husayn Boyqaro – Amir Temurning munosib avlodi. U qilich tutishni ham, mamlakatni idora qilishni ham, hatto g`azal yozishni ham yaxshi biladi. Lekin u, romanda aytilganidek, “qilichdan ko`ra mayga, jang maydonlaridan ko`ra chaman bog`larda tuzilgan sho`x bazmlarga moyil”. Sharq podsholariga xos bo`lgan ana shu xislat bilan xalqning “sharafli, sof, go’zal” yashashi haqidagi Navoiyning orzu-istiklari o`rtasida tubsiz bir jarlik bor.



Navoiy va Husayn Boyqaro



Navoiy Husayn Boyqaroni bolalik kezlaridan boshlab yaxshi bilgani uchun unga ishonadi; uni eng odil, aql-zakovatli, davlatpanoh va xalqparvar temuriy podsholardan biri, deb biladi. Yana shuni ham yaxshi biladiki, Husayn Boyqaroning atrofida uning zaif tomonlaridan o`z maqsadlari yo`lida foydalanadigan, uni chalg`itadigan, hatto o`zi bilan podsho o`rtasidagi iliq munosabatlarga soya tashlaydigan kimsalar oz emas. Afsuski, Sulton Husayn podsho bo`lsa-da, Ollohnning “xom sut ichgan” bandalaridan biri bo`lgani uchun ba`zan xushomadgo`ylar-u ig`vogarlarning zo`r mahorat bilan to`qigan to`ridan chiqa olmaydi. Xazinani to`ldirish muammosi unga xalq dard-u tashvishlaridan ko`ra muhimroq bo`lib tuyuladi.



Romanning asosiy qahramonlari:



Navoiy, Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Jomiy (tarixiy shaxslar); Arslonqul, Sultonmurod, Dildor, To`g`onbek, Shayx Bahlul, Valibek, Sohib Doro, Xo`ja Afzal, Darveshali, Zaynidin, Alovuddin Mashhadiy, Xo`ja Abdulla Marvoriy va boshqalar.



BILIB OLING



Xullas, Oybek romanda Navoiy siymosi va u yashagan tarixiy davrni tasvirlash orqali zamondoshlarni o`tmishdagi achchiq voqealardan saboq, xalq va vatan manfaati yo`lida yashab, ijod qilgan ulug` siymolar va ularning ajoyib fazilatlaridan esa ibrat olishga chaqiradiki, xuddi shu narsada asarning ma`rifiy va tarbiyaviy ahamiyati yotadi.



Romanda keltirilgan hikmatli so`zlardan olam-olam ma`no topasiz:



“Chaqmoq qancha balandda chaqmasin, egri bo`lgani uchun, albatta, yerning qa`riga borur. Shamki, to`g`ri, adldir – kuysa ham boshdan oyoq nur bo`lib kuyur”.

“Shoh bolasiga yurt va sipoh, darvesh bolasiga masjid-u xonaqoh kerak”.

“Yomonlardan yaxshilik kutmoq hayvon shoxida gul unmagini orzu qilmoq bilan barobardir”.

“Lo`lining chirmandasi yorilsa, maymunga o`yinchoq bo`ladi”.

“Fikrlarning sayr-sayohati uchun qog`ozlar tolmas qanotlar kabitidir. Ular tog`dan ham, dengizdan ham oshib o`tgusi!”...



XULOSA



Oybek ulug` o`zbek shoiriga bag`ishlangan romanini shunday shohi ipaklar bilan tikkanki, bunda adibning tanlagan mavzu va qahramonga bo`lgan muhabbatи yaqqol sezilib turadi.

“Biz o`z muhabbatimiz bilan narsalarga go`zallik bag`ishlaymiz”,
degan edi mashhur fransuz yozuvchisi **Anatold Frans**.


Oybek ham Navoiyga nisbatan tuygan ulkan hurmati va muhabbatи bilan buyuk shoir siymosiga va umuman, u haqdagi romanga ajib bir go`zallik bag`ishladi.



“Venn diagramma”



Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroga
ta`rif bering.





Uyga vazifa:

“Alisher Navoiy buyuk
donishmand” mavzusida uy inshosi
yozish.